



 **Innovative Academy**
Research Support Center

**ZAMONAVIY DUNYODA
TABIIY FANLAR:
NAZARIY VA AMALIY IZLANISHLAR
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI**

zenodo

 **doi** DIGITAL
OBJECT
IDENTIFIER

 INTERNET
ARCHIVE

OpenAIRE



**«INNOVATIVE ACADEMY» ILMIY TADQIQOTLARNI
QO'LLAB-QUVVATLASH MARKAZI**

**«ZAMONAVIY DUNYODA TABIIY FANLAR: NAZARIY VA AMALIY
IZLANISHLAR» NOMLI № 25-SONLI ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN
KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

OpenAIRE



zenodo



in-academy.uz

«ZAMONAVIY DUNYODA TABIIY FANLAR: NAZARIY VA AMALIY IZLANISHLAR» NOMLI № 25-SONLI ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN KONFERENSIYASI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2020 YIL 2-MART KUNGI «ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH YILI»DA AMALGA OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURI TO'G'RISIDA»GI FARMONIDA KO'ZDA TUTILGAN VAZIFALARNI IJROSINI TA'MINLASH MAQSADIDA «INNOVATIVE ACADEMY RSC» MCHJ TOMONIDAN TA'SIS ETILGAN «EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH (EJAR)» ILMIY-USLUBIY JURNALINING (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI AXBOROT VA OMMAVIY KOMMUNIKASIYALARNI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGINING 1415-SONLI GUVOHNOMA HAMDA ISSN 2181-2020, WWW.IN-ACADEMY.UZ VEB SAYTI) «ZAMONAVIY DUNYODA TABIIY FANLAR: NAZARIY VA AMALIY IZLANISHLAR» NOMLI ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN KONFERENSIYASI E'LON QILINADI.

KONFERENSIYA TO'PLAMI ZENODO, OPEN AIRE, OPEN ACCESS VA INTERNET ARCHIVE BAZALARIDA INDEKSLANADI. KONFERENSIYA TO'PLAMIGA DOI RAQAMI BERILADI. KONFERENSIYA TO'PLAMIGA QUYIDAGI YO'NALISHLAR BO'YICHA MAQOLALAR QABUL QILADI:

- BIOLOGIYA FANLARI
- TIBBIYOT (TURLARI BO'YICHA)
- FARMATSEVIKA (TURLARI BO'YICHA)
- KIMYO FANLARI
- QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI
- VETERINARIYA

ESLATMA! KONFERENSIYA MATERIALLARI TO'PLAMIGA KIRITILGAN MAQOLALARDAGI RAQAMLAR, MA'LUMOTLAR HAQQONIYLIGIGA VA KELTIRILGAN IQTIBOSLAR TO'G'RILIGIGA MUALLIFLAR SHAXSAN JAVOBGARDILAR.

14.	KURSANTLARINING O'QUV-MASHG'ULOT JARAYONLARIDA CHIDAMKORLIK SIFAT KO'RSATKICHLARINI RIVOJLANTIRISH USHLBLARI ABDULLAEV AKROM ILXOMOVICH	62
15.	ҚАШҚАДАРЁ ВОҲАСИ АМЛОКЛИКЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ-МАДАНИЙ ВА ЭТНОМАДАНИЙ ҲОЛАТИ (ҚАРШИ БЕКЛИГИ МИСОЛИДА) Темурбек Бахрамов	66
16.	ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК МАҲСУЛОТЛАРИНИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШДА УЛАРГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР Раҳимов Одил Бердиевич	71
17.	ROLE OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES Uktamova Zarina Abduvahob qizi	81
18.	ЎЗБЕК ВА КОРЕЙС ТИЛЛАРИДА МЕВА ЭТАЛОНЛИ ЎХШАТИШЛАРНИНГ МИЛЛИЙ-МАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ Жо Мин Ёнг	85
19.	ENGLISH LANGUAGE LEARNING Asadullaeva Visola Bekhzod Qizi	91
20.	DONLI EKINLARINING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA АНАМИЯТИ. Gafarova Saida Muxamedjonovna	95
21.	TUPROQNING BIOLOGIK FAOLLIGINI OSHIRISHDA BIOSTIMULTATORLAR VA MIKROORGANIZMLARNING XUSUSIYATLARI Хо'janiyozova Barno Xushnudovna, Shukurova Shaxlo Gulmurodovna, Ruziyeva Navbahor Isroilovna	99
22.	BUXORO VILOYAT "LATIF SHARIF ERGASH" FERMER XO'JALIGI PAXTA DALASI TUPROQLARINING KIMYOVIY TAHLILI Aripov B.F., Axmedova Z.R.	104
23.	ЎЗБЕКИСТОНДА ШИРИНМИЯ (GLYCYRRHIZA GLABRA L.) ЎСИМЛИГИНИНГ БИОЭКОЛОГИК ВА БИОФАОЛЛИК ХУСУСИЯТЛАРИ. Д.М Садуллаева	107
24.	МИКРОБИОЛОГИК ВИОПРЕПАРАТЛАРНИНГ ҚИШЛОҚ ХО'ЖАЛИГИДА TUTGAN O'RNI. Tag'aeva Muhayo Bafoevna, Hamroqulova Gulsevar Odiljonovna	110
25.	ПОВЫШЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ Шарипова Дилбар Гулямовна, Хикматова Дилрабо Пулатовна	119
26.	НАУЧНЫЕ ТЕРМИНЫ ЗАЛОГ УЛУЧШЕНИЯ ПАМЯТИ	121

BUXORO VILOYAT "LATIF SHARIF ERGASH" FERMER XO`JALIGI PAXTA DALASI TUPROQLARINING KIMYOVIIY TAHLILI

Aripov B.F.¹

Axmedova Z.R.²

¹Buxoro davlat universiteti

²O`zR FA mikrobiologiya instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7359226>

Tuproqning suv o'tkazuvchanligi va bug'latishi, suvni uzoq, muddat o'zida saqlab tura olishi, tuproqning isishi, issiqlikni o'tkazishi va issiqlikni tarqatishi hamda tuproqdagi havo almashinuvi ko'p jihatdan uning tuzilishi va tarkibiga bog'liq bo'ladi.

Tuproq tarkibidagi suv, harorat va havo o'simliklarning o'sishi va rivojlanishidagi asosiy omillardan biri ekanligi bizlarga ma'lum.

Tuproqda yashaydigan ayrim bakteriya va zamburuqlar uchun tuproq havosi muhim rol o'ynaydi. Tuproqda havo yetishmasa, turli bakteriya va zamburuqlar hayot kechira olmaydi, buning oqibatida tuproqdagi mavjud o'simlik va hayvon qoldiqlarining chirish jarayoni amalga oshmaydi, natijada tuproqning unumdorligi pasayishiga sabab bo'ladi.

Tuproqning unumdorlik xususiyatlari unda o'simliklarning urug'dan unib chiqishi, o'sishi, oziqlanishi, urug` va meva hosil qilishi, tuproqning mexanik, organik, mineral tarkibi, strukturasi, fizik va fizik-mexanik xossalari, tuproqning singdirish qobiliyati va reaksiyasiga bog'liq bo'ladi.

Tuproqning holatini aniqlash va uning unumdorligini oshirish uchun ular tarkibi va xususiyatlarini aniqlash ishlari ya'ni tuproqlar tahlillari doimiy ravishda amalga oshirilib turilishi lozim.

Biz Buxoro viloyati Jondor tumaning "Latif Sharif Ergash" fermer xo'jaligi paxta dalasidan tuproq namunalarini olib, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya institutining "Tabiatni muhofaza qilish biotexnologiyalari" laboratoriyasida kimyoviy tahlilini amalga oshirdik. Tahlil natijalari 1-jadvalga keltirilgan.

Azot miqdori:

№ Namuna	Azotning yalpi shakli, %	Baho taminlangn ligi	Azotning yalpi shakli, % tuproq normasi	Harakatlanuv chi, o'simlik tomonidan o'zlashtiriladi gan shakllar N-NO ₃ , mg/kg	Baho taminlan ganligi	Harakatlanuv chi, o'simlik tomonidan o'zlashtiriladi gan shakllar N-NH ₄ , mg/kg, norma
1	0,063	Juda past	0,09-0,12	17,5	Juda past	30-50

Fosfor miqdori:

N ^o Namuna	Fosforning yalpi shakli, %	Baho taminlanganligi	Fosforning yalpi shakli, % tuproq normasi	Harakatlanuvchi, o'simlik tomonidan o'zlashtiriladigan shakllar P ₂ O ₅ , mg/kg	Baho taminlanganligi	Harakatlanuvchi, o'simlik tomonidan o'zlashtiriladigan shakllar P ₂ O ₅ , mg/kg norma
1	0,120	Juda past	0,21-0,26	40,0	O'rtacha	46-60

Kaliy miqdori:

N ^o Namuna	Kaliyning yalpi shakli, %	Baho taminlanganligi	Kaliyning yalpi shakli, %, tuproq normasi	Harakatlanuvchi, o'simlik tomonidan o'zlashtiriladigan shakllar K ₂ O, mg/kg	Baho taminlanganligi	Harakatlanuvchi, o'simlik tomonidan o'zlashtiriladigan shakllar K ₂ O, mg/kg norma
1	1,17	Juda past	1,8-2,4	253	O'rtacha	301-400

Tuproq genezisini o'rganish uchun tuproqni dalaning bir necha joyidan yoki har bir qavatidan namunalar oldik. Tuproq tahlili natijalaridan tuproq xaritalari tuzishda, shuningdek tuproqning agrobiokimyoviy xossalarini tekshirishda foydalandik. Tuproqdan aniq natijalar olish uchun, olingan tuproq namunalarini to'g'ri saqlash muhim rol o'ynaydi.

Keyingi yillarda Respublikamizda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularni ko'paytirish borasida qator farmoyishlar chiqarilmoqda. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi asosiy talablardan biri bu kimyoviy o'g'itlar sarfini kamaytirish bo'lgan, ekologik talablarga javob beradigan biologik preparatlarni yaratishdir. Tuproqda rivojlanadigan mikroorganizmlar o'simliklarni oziq moddalar, gormonlar, vitaminlar va boshqa fiziologik faol birikmalarga bo'lgan ehtiyojini to'la ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligida tuproq mikrobiologik jarayonlarini faollashtiradigan bir qator biologik mahsulotlar qo'llaniladi. Biologik mahsulot issiqxonalarda sabzavot va gul ekinlarini etishtirish uchun ishlatiladigan biologik faol tuproqlarni ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan. Biologik faol tuproqlar pestitsidlarning tez parchalanishiga, mikroorganizmlarning fitopatogenlarga qarama-qarshiligi tufayli tuproqning yaxshilanishiga yordam beradi.

Buxoro viloyati "Latif Sharif Ergash" fermer xo'jaligi paxta dalasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlardanasosiy maqsad, tuproqlarining kimyoviy tahlilini qilish, tuproq tarkibodagi mikro va makro elementlar miqdorini aniqlash, tuproq mikroflorasi tahlillaarini keltirish va ekin maydonlari tuproqlari unumdorligini oshirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tokhirov B.B., Mustafoyev X., Tagayeva M.B. Production of microscopic always, their use in livestock and poultry // Экономика и социум. 2021, №. 4-1. p.426-427.
2. Ходжимуродова Н.Р., Хакимова Н.Х., Тогаева М.В. Бухоро вохаси сугориладиган ўтлоқи аллювиал тупроқларида микроорганизмлар фаоллиги // Республика илмий-амалий анжумани материаллари туплами. Гулистон, 2020. 166 б.
3. М.В. Тогаева, Z.T.Safarova, N.A.Azizova. Main sources of increasing the productivity of alluvial soils of medium salt grazine of bukhara region // JournalNX. – Т. 6. – №. 06. p. 88-93.
4. Ходжимуродова Н., Хакимова Н., Тагаева М. Биологическая активность почв Бухарского оазиса в зависимости от степени. Тошкент, 2020, с. 1061-1064.
5. Гармашов, В.М. Засоренность посевов при различных способах обработки почвы в зернопропашном севообороте [Текст] / В.М. Гармашов, А.Ф. Витер // Земледелие. – 2008. – № 5. – С. 37-38.
6. Гармашов, В.М. Минимализация обработки почвы в Централно-СХерноземной зоне [Текст] / В.М. Гармашов, А.Л. Качанин // Земледелие. – 2007. – №. 6. – С. 8-10.